

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal





KALIT SO'ZLAR

Farg'ona, Milliy hunarmandchilik, Qo'qon, Marg'ilon, Quva. Rishton, atlas, adres, yog'och o'ymakorligi,

O'ZBEKISTONDA MILLIY HUNARMANDCHILIK TARIXI VA BUGUNI(FARG'ONA VILOYATI MATERIALLARI ASOSIDA)

Botirov Javlonbek Tilavoldiyevich

Andijon mashinasozlik instituti

"Gumanitar fanlar" kafedrasi stajyor o'qtuvchisi

Tel:+998998574409

Email: botirovjavlonbek24@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona viloyati milliy hunarmandchiligining tarixi va bugungi ko'rinishi ifodalangan. Shuningdek viloyatdagi alohida hunarmandchilikka ixtisoslangan shaharlar va hududlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Qadim-qadimdan Farg'ona vodiysi, xususan, viloyatdagi hunarmandchilik an'analari doimiy ravishda shakllanib, avloddan-avlodga o'tib, meros bo'lib kelgan.

"O'zarxiv" agentligi saqlovida bo'lgan tarixiy fotohujatlarda aks etgan farg'onalik hunarmandlar ish jarayonlari o'zbek xalqining o'ziga xos milliylik va mehnatsevarligini ifodalaydi. Ustalarining ish jarayonidan lavhalar, jumladan, farg'onalik yog'och o'ymakori usta Qodirjon Haydarov o'z uyi hovlisida yog'och materiallaridan turli xil o'ymakorlik namunalari yaratib kelganligi to'g'risida 1963 yildagi rasmlar va Farg'ona viloyatidagi Avval qishlog'ida joylashgan masjidning shift qismiga tushirilgan milliy naqqoshlik namunalaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Rishton tumani nafaqat viloyatning, balki respublikamizning kulolchilik markazi hisoblanadi. Bugungi kunda ham ushbu kulolchilik markazida yaratilgan ijod namunalari sayyoohlar e'tiborini jalb etib kelmoqda. Rishtonlik kulollar tomonidan tayyorlangan turli xil ko'rinishdagi buyumlarda milliyligimizni ifodalovchi o'ziga xoslik, tarix va hozirgi zamонни ifodalanishi xorijiy mehmonlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Hozirgi milliylikni saqlab qolish murakkab bo'lgan davrda, ushbu harakatlar taqsinga sazovordir. Zero, milliy hunarmandchilikni saqlash, uni avloddan-avlodga meros tariqasida o'tkazib borish natijasida tariximizni barhayotligini saqlab qolishimiz mumkin.

Bundan tashqari har qanday o'zbekistonlikdan sof ipak mahsulotni qayerdan sotib olish mumkinligi haqida so'rang. Sizga, albatta, Marg'ilonga borishingizni maslahat berishadi. Zero aynan shu hudud o'zining ipakchilik mahsulotlari bilan nafaqat O'zbekistonda, balki chet elda ham mashhurdir. Uzoq vaqt davomida ushbu shahar ipak ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz sifatida mashhur bo'lib kelgan. Shaharda eng qadimgi "Yodgorlik" ipak to'quv fabrikasi ishlaydi. Zavod 1972 yilda ochilgan. Bugungi kunda bu

O'zbekistondagi yagona fabrika bo'lib, u yerda ipak mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun sikli qo'lqop yetishtirishning an'anaviy texnologiyalari yordamida qo'lida amalga oshiriladi. Har narsani o'z qiymati bo'lgani kabi ushbu hunarmandchilik mahsulotlarini ham o'z haridchlari ega. Zero ushbu qo'l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlarni sifati ham shunga yarasha bo'ladi.

Marg'ilonda shuningdek qadimiy kulolchilik va pillachilik maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Marg'ilonda 1000 dan ortiq oila hunarmandchilik bilan shug'ullanadi. Marg'ilon shahridan 500 dan ortiq hunarmandlar Hunarmand milliy uyushmasiga a'zo.

Marg'ilonda har yili "Atlas bayrami" xalqaro ipak festivali o'tkaziladi. 2017 yilda YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining qarori bilan o'zbek an'anaviy atlas va adreslarini tayyorlash texnologiyasi YuNESKOning nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar reestriga kiritilgan. Noyob amaliyot "Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish, atlas va adreslarni himoya qilish, an'anaviy texnologiyalarni yaratish markazi" deb nomlandi. Albatta Marg'ilon atlasing YuNESKO ning nomoddiy merosi ro'yhatiga kiritilishi bularni jahon miqyosida tan olinishini kafolatlaydi. Bu harakatlar orqali xorijiy turistlarni ham jalb etish mumkin.

Atlas bayrami festivali kunlaridan birida Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga YuNESKO tomonidan ushbu amaliyot sertifikati topshirildi, markaz 2007 yilda YuNESKO homiyligida ochilgan. Markazning vazifalariga Marg'ilon uchun an'anaviy bo'lgan atlas va adres matolarini ishlab chiqarish texnologiyasini qayta tiklash va saqlash kiradi. Festivalda Marg'ilon ipakchiligi va milliy mahsulotlarni keng targ'ib etish, milliy matolardan foydalangan holda liboslar dizaynnini yaratish va an'anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish, atlas va adreslarga bezak berish, ipak matolarga naqsh va gullar bosish, o'tgan asrlarda yurtimizda mashhur bo'lgan gazlamalar tarixini o'rGANISH masalalariga e'tibor qaratiladi. Markaz mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi, ko'rgazma va yarmarkalarni o'tkazadi, shuningdek an'anaviy to'qish usulini saqlashga bag'ishlangan materiallarni tayyorlaydi va nashr etadi. Yosh hunarmandlar uchun taniqli ustalar ishtirokida an'anaviy kashtado'zlik, tabiiy bo'yash, liboslar dizayni bo'yicha mahorat saboqlari tashkil etilishi ko'zda tutilgan. 2020 yil boshida usta Ibrohimjon Sultonovning tashabbusi bilan davlat va xususiy sheriklik asosida Marg'ilonda yana bir hunarmandchilik markazi qurildi. Markazda 600 nafar hunarmand ishlaydi. Bu yerda atlas va adresning 200 ga yaqin turi, gilamchalar, tikuvchilik va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ikki qavatli markazning yer osti sathida atlas, adres, beqasam, ipak va baxmal matolari ishlab chiqariladigan to'quv ustaxonlari joylashgan. Birinchi qavatda tayyor mahsulotlar ko'rgazmasi, podium va atelye joylashgan. Bu matolarni tikish va ranglarni qo'llash jarayonini namoyish etadi. Ikkinci qavatda gilam ustaxonasi mavjud.

Bu yerda haqiqiy ipakdan noyob gilamchalar tikiladi. Yangi Marg'ilon markazi yuqori sifatli ipak bilan mashhur, ipakni bo'yash uchun tabiiy bo'yoqlardan foydalilaniladi. Markazning noyob mahsulotlari allaqachon Turkiya, AQSh, Italiya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston va Tojikistonga eksport qilinmoqda.

Farg'ona viloyatining yana bir milliy hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lgan shahri Qo'qon shahridir. Shahar Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Buyuk ipak yo'lidagi eng qadimiy shahardir. Qo'qonning ulug'vorligi va obodligi uning o'sha davrlardagi hashamatli me'moriy merosi - koshinli masjidlar, maqbaralar, madrasalarda hamon ko'zga tashlanadi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki Qo'qon ta'lim va fan taraqqiyotining markazi edi. XX asr boshlarida 660 masjid, 67 madrasa, 26 ziyoratgoh, yuzdan ortiq xonaqoh, 6 markaziy va o'nlab ixtisoslashtirilgan bozorlar, 30 ga yaqin karvonsaroylar mavjud edi.

2023-yil 21 — 23 sentyabr kunlari Qo'qon shahrida II Xalqaro Hunarmandchilik festivali o'tkazildi. Ushbu festival uchun Qo'qon shahri tanlangani bejis emas. Qadimiy va go'zal shahar dunyoga dovrug'i ketgan mohir hunarmandlar maskani sifatida ma'lum va mashhurdir. Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabining atoqli namoyondasi, O'zbekiston xalq rassomi Qodirjon Haydarov ushbu sohada milliy an'analarni saqlab qolib va yanada rivojlantirib, iste'dodli yoshlarni tarbiyaladi. Bu borada amalga oshirilgan ishlari har qanday hunarmand uchun ibrat va o'rnak namunasidir. Bugungi kunda ham Qo'qon shahrida hunarmandchilik an'analari izchil rivolanmoqda. Xususan, yog'och o'ymakorligi, qog'ozgarlik, chilangarlik, zargarlik kabi hunarmandchilikning ko'plab turlari ravnaq topmoqda.

Aytish lozimki, 2019 yilda Birinchi "Xalqaro hunarmandchilik festivali"da 78 ta mamlakatdan 570 nafar ishtirokchi, yurtimizning 14ta hududidan esa 1200 nafar mahalliy hunarmandlarimiz ishtirok etib, tadbirga bir milliondan ortiq tashrif buyuruvchi va xorijiy sayyohlar kelgan. Ushbu nufuzli tadbirning o'tkazilishi natijalariga ko'ra Qo'qon shahriga sayyohlar oqimi 10 barobarga, hunarmandlar soni 3,5 barobarga, mehmonxonalar 2,5 barobarga oshdi. Jahon hunarmandchilik Kengashining 2019 yilning 23 iyulidagi qaroriga ko'ra, Qo'qon shahriga yog'och o'ymakorligi bo'yicha Hunarmandchilik shahri maqomi berilgan.

Shuningdek, undan so'ng, Hunarmandchilik shahri maqomi Buxoro hamda Marg'ilon shaharlariiga ham berilgan. Xalqaro tashkilotning bunday e'tirofi yurtimizda hunarmandchilik qadimdan boy an'analar asosida rivojlanib kelayotganligini ko'rsatadi. 2020 yilda Butunjahon Hunarmandlar Kengashi - Osiyo va Tinch Okeani Mintaqasining 2021-2024 yillar Prezidentiligini O'zbekistonga topshirildi. Ushbu xalqaro tashkilotning Osiyo va Tinch Okeani Mintaqasi bo'yicha ofisini O'zbekistonga olib kelish va nufuzli tadbirlarini yurtimizda o'tkazish mamlakatimizda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va mavqeini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir viloyatning muhim shaharlaridan biri Quva shahridir. Quva - Farg'ona vodiysini qadimda Qoshg'ar bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'lida joylashgan shaharlardan biri. Arxeolog olimlarning ta'kidlashicha Quva shahriga er. avv. III asrda asos solingan. Xitoy manbalariga ko'rba bu shahar arab bosqiniga qadar Xunmin deb atalgan. O'rta asr Quva shahri esa shaharning qadimgi o'rniqa qayta tiklangan va uch qismdan: Ark, Shahriston va Raboddan iborat bo'lgan.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, qadimda Quva shisha va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha yirik hunarmandchilik markazi bo'lган. Shisha buyumlar nihoyatda yupqa bo'lib ulardan qadah, atir sepkich, qon bosimini tushirishda ishlatilgan alambika, tibbiyot kolbalaridir. Quva ustalari ishlagan shisha buyumlar shakli, bezalishi, rango-rangligi bilan ajralib turgan. Ustalar nafaqat maishiy sohalar uchun balki, qurilish oynalari ham ishlab chiqarganlar. Ular yasagan oynalar derazalar, tuynuklarga qo'yilgan bo'lib, qora ranglilari ham uchraydi. Bu yodgorlikda uzoq yillar arxeologik qazuv ishlari olib borgan arxeolog olim B.Matboboyev O'rta Osiyoning yoz iqlimi sharoitida qoraytirilgan oynalarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lganligi va bunday oynalarning yaratilishi maishiy hayotda bundan ming yillar avval ham ishlatilganligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda ushbu yodgorlikning ham tarixiy va madaniy ahamiyati katta. O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda arxeologik yodgorliklar va ularning ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirilishi Quva yodgorligi misolida Farg'ona vodiysiga nafaqat O'zbekiston, balki xorijiy turistlarni o'ziga jalg qilishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan missollardan shuni anglash mumkinki Farg'ona viloyati milliy hunarmandchiligi o'zbek milliy hunarmandchiligidan alohida mavqega ega. Zero, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Rishton, Quva kabi shaharlar nafaqat yurtimizda, balki dunyoda ham o'z milliy hunarmandchiligi bilan dong'i ketgan. Endilikda ushbu hududlarda milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, ustoz-shogird an'analarini davom ettirish kun tartibidagi asosiy vazifalardan biriga aylandi. Chunki boy hunarmandchilikni kelajak avlodga yetkazishda ularning o'rni beqiyosdir. Bu ishlar orqali viloyatga xorijiy sayyohlarni ham kata oqimini jalg qilish mumkin. Bu harakatlar natijasida hunarmandlar moddiy ta'minoti yaxshilanadi, shuningdek xorijiy o'lkalarda o'zbek milliy hunarmandchiligiga qiziqish ham ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esonov Z.Y. Farg'ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an'analari.-Farg'ona, 2023.
2. Omonova S. O'zbek an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida.-Toshkent, 2018.